
“Oilaviy nizolarni oldini olish” mavzusida davra suhbati o‘tkazildi

Farg‘ona viloyat sudi raisi tomonidan 2023 yil 6 yanvar kuni tasdiqlangan media reja ijrosini ta‘minlash maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining raisi Sh.Axunbaev tomonidan 2023 yil 30 yanvar kuni Rishton tumani Istiqbol MFY binosida “Oilaviy nizolarni oldini olish” mavzusida davra suhbati o‘tkazildi.

Davra suhbati mobaynida O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 16 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-810-sonli Qonuni, “Chaqaloq va odam savdosi”, “Oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish hamda xotin qizlarning qonuniy huquq va manfaatlari haqida”, “Meros masalalari bo‘yicha nizolar”, “Korruptsiya-jamiyat kushandasi” mavzularida so‘z yuritib, uning oqibatlari, qonunda belgilangan keskin javobgarlik to‘g‘risida ishtirokchilar e‘tiboriga yetkazildi.

2023-01-30 19:20:33